



ABULG'OZI BAHODIRHON DAVRIDA

IJTIMOYIY - IQTISODIY HAYOT

Quronboyeva Sevinchoy Maqsud qizi

Urganch Davlat Universiteti tarix faqulteti 2-kurs magistranti

<https://www.doi.org/10.37547/ejsspc-v03-i02-p2-52>

ARTICLE INFO

Received: 11th February 2023

Accepted: 20th February 2023

Online: 21th February 2023

KEY WORDS

Abulg'ozi Bahodirhon, Anushahon, Yangi Urganch, Shajarai turk, Shajarai tarokima, Oqmasjid, otaliq, inoq.

ABSTRACT

Ushbu maqolada Xiva xoni Abulg'ozi Bahodirxonning davlatni mustahkamlash uchun ijtimoiy, iqtisodiy siyosiy sohalarida olib borgan ishlari, shu bilan birgalikda bunyodkorlik ishlari haqida ma'lumotlar o'rin olgan.

Abulg'oziy Bahodirxon Xiva xonlari orasida tadbirkorligi, tashkilotchiligi va bilimdonligi bilan ajralib turadi. Uning hayoti Xiva xonligini markazlashtirish, mamlakat iqtisodi va madaniyatini rivojlantirish, chegaralarni kengaytirish va mustahkamlash, turkmanlarni Xiva xonligiga bo'ysundirish uchun olib borilgan shiddatli kurashlar bilan o'tdi. Uning siyosiy hayot yo'li sarmazmun sarguzashtlar bilan to'la. Xiva xoni Abulg'oziy Bahodirxon yigirma (1644-1664) yil hukmronligi davrida Xorazmni ham siyosiy, ham iqtisodiy jihatdan, ham madaniy tomondan yuqori darajaga ko'tarish maqsadida davlatni ma'muriy boshqaruv, qonunchilik va soliq tizimi, dehqonchilik, chorvachilik va me'morchilikni rivojlantirish, madrasa va maktablar, masjidlar qurilishi, ilm-fanni yuksaltirish bilan bog'liq islohotlar o'tkazib, qo'shni davlatlar bilan iqtisodiy, madaniy, diplomatik aloqalarni ham keng yo'lga qo'yishga intildi. U o'zining elchisi Davlatmand orqali rus podshosiga murojaat qilib, Rossiya va Xiva xonligida savdo-sotiq munosabatlarini mustahkamlashni so'raydi. Shuningdek, Abulg'oziy Bahodirxon Xiva va Hindiston davlatlari o'rtasida diplomatik va savdo-sotiq munosabatlarini mustahkamlash uchun Shohbobo va Shohjahonlarni elchi qilib Hindistonga yuboradi. 1648 yilda Eron shohi Abbos XII ga elchi yuborib, ikki o'rtada savdo-sotiq va do'stlik aloqalarini mustahkamlashni iltimos qiladi. Bu siyosiy tadbirlar Abdulg'oziy Bahodirxonning markazlashgan davlat va fuqarolarning manfaatlarini himoya qilish va mustahkamlash siyosatida oqilona yo'l tutganligini ko'rsatadi. Abulg'oziyxon hokimiyat tepasiga kelgach, dastavval, asosiy e'tiborni davlat tuzumini mustahkamlashga qaratadi. U turkman amaldorlarini davlat boshqaruvi ishlaridan chetlashtiradi. Ular qo'lidagi mol-mulk, yer-suvlar tortib olinadi, o'zlari esa xonlik hududlaridan haydab chiqariladi. Turkmanlarning ko'pchiligi, Janubiy Turkmaniston, Mang'ishloq tomonlarga ko'chishga majbur bo'ldilar. Xonlikning barcha yuqori lavozimlari Xiva shayboniylari vakillari qo'lga topshirildi. Shayboniyyodalardan 360 kishini xonlikning turli lavozimlariga tayinladi. Bundan tashqari,



yana 32 ta markaziy boshqaruv lavozimlari tashkil etilib, ular tubandagicha taqsimlandi: 2 ta shayxulislom, 1 ta mutavalli, 1 ta parvonachi, 2 ta oko, 2 ta arbob, 4 ta chig'atoy inoqi, 1 ta noib, 4 ta otaliq, 1 ta inoq, 4 ta mirob, 4 ta biy, 1 ta vazir (mehtar) 1ta qushbegi. (1). Bu bilan Abulg'oziy Shayboniylar va yerli aholining nufuzli vakillarini davlat boshqaruv ishlariga jalb etib, ular orasida ma'lum darajada barqarorlikni o'rnatdi. Abulg'oziy Bahodirxonning davlatni oqilona boshqarish siyosatida inoqlar, otaliqlar, biylar va boshqa amaldorlar muhim rol o'ynaganlar. Har bir urug'ga bitta inoqni boshliq qilib qo'yadi. Quyi toifalar va urug'larning boshlig'i etib biyni qo'ygan, bir necha biyni esa otaliqqa bo'ysundirgan. Shuningdek, bir urug'ning sardori inoqni bir necha otaliqqa boshliq qilib ham tayinlagan. Yangi xonni taxtga o'tkazish vaqtida inoqlar oq namatning to'rt burchagidan ushlab, unda bo'lajak Xiva hukmdorini uch marta osmonga irg'itar edilar, – bu inoqlarning asosiy va faxriy burchi edi. Davlatni boshqaruv tizimidagi mansablar ma'muriy, siyosiy, huquqiy, diniy va harbiy lavozimlarga bo'lingan bo'lib, bu vazifalarni bajaruvchilarga tegishli maosh va mukofotlar berilardi. Sud ishlari qozilar qo'lida bo'lib, u shariat qonunlari asosida qat'iy yuritilardi.

Inoqlarga egallab turgan mansablariga qarab 50 tildan 500 tillogacha maosh to'langan. Shuningdek, ulug' inoq yoki inoqbek unvoni egasi 300 tildan 500 tillogacha maosh olganlar.

Abdulg'oziy Bahodirxon saroyda o'tkaziladigan turli rasmiy qabul marosimlari va siyosiy tadbirlarda ishtirok etish va o'tirish uchun inoqlarga to'rt joy ajratgan. Inoqlardan faqat biri xonning chap tomonida Amir ulumoradan keyin o'tirish huquqiga ega bo'lgan, u 'Ulug' inoq' deb atalgan. Boshqa inoqlar ham xonning chap tomonida, yigirmanchi o'rindan boshlab o'tirishi rasm bo'lgan. Rasmiy qabul marosimlarida to'rt otaliq xonning chap tomonida o'tirganlar. Bir otaliq xondan nari, to'qqizinchi o'rinda uch otaliq esa shayxuislomdan keyin o'n bir va o'n to'rtinchi o'rinlarda o'tirganlar. Otaliq unvoni yorlig'i faqat o'zbeklargagina berilmasdan, balki boshqa qoraqalpoq, turkman, uyg'ur urug'lari vakillariga ham berilgan. Otaliq unvoni olganlarga oltin qilich va xanjar taqib, zarbob to'n kiyib yurishi rasm bo'lgan. Ularga 10 tildan 150 tillogacha maosh to'langan. Otaliqlardan keyin xonning chap tomonida to'rtta biy o'tirgan, ular ham turli imtiyozlarga ega bo'lib, maosh olganlar.

Abulg'oziyning ichki siyosat sohasida o'tkazilgan eng muhim tadbirlaridan yana biri Dashti Qipchoqdan kelgan ko'chmanchi qabilalarni butun voha bo'ylab o'troqlashtirish siyosati bo'ldi. U o'zlarini «O'zbek» deb atagan ko'chmanchi qabilalarni o'zaro yaqinliklariga qarab, to'rtta to'paga (guruxga) bo'lib, Darg'onotadan to Orol dengizigacha bo'lgan yerlarga joylashtirdi. Birinchi to'pani, asosan uyg'ur-naymonlar tashkil qilib, unga yana do'rman, yuz, ming, shayx, burloq kabi kichik urug'lar ham qo'shilgan. Ular Orol dengizigacha bo'lgan hududlarga joylashtirdi. Ikkinchi to'paga qo'ng'iroq-qiyotlar birlashtirilib, unga jaloyir va alieli urug'lari ham qo'shilgan. Uchunchi to'paga nukus - mang'it qabilalari birlashtirilib, kanagas va xo'jaeli urug' qabilalari ham unga birlashtirilgan. To'rtinchi to'paga, asosan, qang'li qipchoq qabilalari kiritilib, unga yana ko'chmanchilarning 14 ta urug'i birlashtirilgan. O'zlarini Dashti Qipchoq «o'zbek»lari deb nomlagan qabilalar, Xorazm vohasi bo'ylab tubandagicha joylashtirildi: Pitnakdan Yangiariqgacha (Xazarasp qal'asi atrofi ham) bo'lgan hududlarga nayman qabilalari, shayh va burloq urug'lari joylashtirildi. Yangiariqdan to Gurlangacha Amudaryoning ikkala sohili bo'ylab uyg'ur qabilalari joylashtirildi, Gurlandan to Lavzan kanaligacha bo'lgan hududlarga Mang'it qabilalari joylashtirildi. Ulardan to Amudaryo



quyi havzasining o'rta qismigacha Nukus va Mang'it qabilalari, g'arbiy tomonida Quyg'un deb nomlangan ho'dudga Qo'ng'iro't va Qiyotlar o'rnashgan, Amudaryoning so'l sohilida, hozirgi Qipchoq Tumani atrofyda hamda Ho'jaeli va ko'k o'zak oralig'idagi hududlarga, shuningdek, Amudaryo quyi oqimi havzasining sharqiy tomonidagi yerlarga qang'li va qipchoq qabilalari joylashtirildi. Dashti Qipchoqdan kelgan qabilalarni qolgan 14 urug'i ham qang'li va qipchoqlar atrofiga birlashtirildi. Shu bilan bir qatorda, ko'chmanchilarning asosiy qabilalaridan, jumladan, qo'ng'iro't va qipchoqlardan alohida guruhlar tuzilib, ular xonlik markazi Xiva atrofiga joylashtirildi. Abulg'oziyxon davrida Dashti Qipchoqdan kelgan ko'chmanchi qabilalar Xorazmning deyarlik barcha hududlariga tarqaldi va ularning o'troqlashuv jarayoni boshlandi. Bu jarayon to XVIII asr oxirigacha davom etdi.(2) Dashti Qipchoqdan kelgan ko'chmanchi qabilalar va Orol bo'yida joylashgan qoraqalpoqlarning o'troqlashuvi va ularning dehqonchilik sharoitiga o'ta borishi bilan Xorazmda sug'oriladigan yerlarni o'zlashtirish, yangi ariqlar qazishni, yangi qishloq va shaharlar barpo qilish zaruratini tug'dirdi. Bu zaruriyatning tug'ilishi yana bir tabiiy hodisa XVI asrning 70-yillarida Amudaryo oqimining o'zgarishi va Shimoliy Xorazm shahar va qishloqlarning suvsiz qolishi sabab bo'ldi. 1646-yilda Abulg'oziyxon farmoni bilan Amudaryodan Yangiariq qazilib, unga Urgancharna deb nom qo'ydilar. Ana shu ariq yaqinida yangi bir shahar Urganch shahri barpo qilindi. Shu vaqtdan boshlab yangi shahar Yangi Urganch deb, eski Urganch esa Qo'hna Urganch deb atala boshladi. Suv tanqisligidan azob chekkan Ko'hna Urganch aholisi Yangi Urganchga ko'chirildi. O'sha vaqtda Abulg'oziyning topshirig'i bilan Gurlan qal'asidan 12 km shimoliy g'arbda Kichik Vazir qal'asi bunyod etilib. Katta Vazir shahri aholisi shu joyga ko'chirildi. Undan tashqari Abulg'oziyxon davrida Madr kanali qaytadan qazilib, G'oziobod-Arna deb ataldi. Bu kanal oyog'ida G'oziobod qal'asi ham qad ko'tardi. Abulg'oziyxon davrida amalga oshirilgan islohotlar, ulkan qurilishlar, suv inshootlari xonlikda ekin maydonlarini kengaytirish, sug'orish ishlarini yaxshilash, aholi faravonligini oshirishga imkon tug'dirdi. Abulg'oziyxon markaziy hokimyatni birmuncha mustahkamlab, asosiy e'tiborni davlat chegaralarini kengaytirish va mustahkamlashga qaratdi. Shu maqsadda Abul-g'oziyxon 1645-1650-yillarda Xuroson, Janubiy Turkmanistonga, Tajan, Murg'ob, Artek daryolari havzasidagi hamda Gurgan, Abulxon va Mang'ishloq atroflaridagi turkmanlar ustiga yurishlar qilib, ularni o'ziga bo'ysundirdi. Buxoro xonligiga munosabat masalasi ham uning diqqat markazida edi. Buxoro va Xiva xonliklari o'rtasidagi kelishmovchilik, asosan, O'rta Osiyoda, Janubiy Turkmaniston va Xurosonda o'z ta'sir doirasini kuchaytirish maqsadida Abulg'oziyxon o'sha davrda shimoldan bo'layotgan qolmiqlarning tajovuzlariga ham qaqshatqich zarba bergan va xonlikning shimoliy g'arbiy chegaralarini mustahkamlagan.(3).

Abulg'ozixon xonlik taxtiga chiqqach, Xorazmda ilm-fanni taraqqiy ettirish va madaniyatni yaxshilash maqsadida o'z saroyiga binokorlar, tabiblar, shoirlar tarixnavislar, adib, xattot va boshqa kasb egalarini to'pladi.(4) .Jumladan 1657- yilda Buxoro va Karmanaga qilingan omadli yurishdan qaytgach, yurtga katta to'y berdi va xaloyiq oldida o'z o'g'lining xizmatlarini qadrlab, unga tug', lashkar, bayroq va nog'ora hamda Hazoraspni tuhfa etdi. Shuningdek bu g'alaba sharafiga yangi Oqmasjid qurdi. Oqmasjid qadimiy san'at uslubida qurilgan. Bu masjid Polvon Darvoza yonida joylashgan. Oqmasjid pishiq g'ishtdan qurilgan bo'lib, uning yonida pishiq g'ishtdan qurilgan hammom xarobalari hozirgacha saqlanadi.(5) Anushaxon sharafiga qurilgan bu hammom ham Abulg'ozixon o'z o'g'liga qilgan



marhamatlaridan bittasidir. Shuningdek, u umrining oxirida hali o'lmay turib taxtni Anushaxonga topshirdi. Bu ishni Abulg'ozixon boshqa Xorazmda hukmronlik qilgan hukmdorlar qilishmagan. Shundan keyin xon uzlatga chekinib bir qator tarixiy asarlar yaratdi. (6) Abulg'ozir Bahodirxon ijtimoiy-siyosiy hamda ijodiy faoliyati bilan bugungi yoshlarga yaxshi ma'lum bo'lmasa-da, u ulkan tarixiy shaxsdir. (7) Sababi – O'rta Osiyoda davlat va madaniyat rivojlanishida yuz bergan qariyb ikki asrlik inqirozdan keyingi uyg'onish Abulg'ozirning ijtimoiy-siyosiy va ijodiy faoliyati bilan boshlanadi. Ma'rifatparvar va bilimdon Amir Temur vujudga keltirgan sharoitda buyuk shoir Alisher Navoiy boshliq ulkan allomalar maydonga kelgani kabi Abulg'ozixon boshliq Xorazmda ham yuksak madaniyat va ilmu irfon tomon rivojlanish ko'zga tashlanadi. Akademik olim Bo'riboy Ahmedovning so'zi bilan aytganda u «tarixda oliy hukmdor sifatida emas (tarixda jahonni titratgan ne-ne podshohlar o'tmadi, lekin allaqachonlar ulardan nom-nishon qolmagan), balki yirik olim sifatida qoldi. Ilmning xosiyatidan shunday bo'ldi u. Darhaqiqat, Abulg'ozir keng va chuqur ma'lumotli kishi edi» (8) . U hukmdor sifatida beklilik o'rtasidagi o'zaro qirg'in urushlarga xotima beruvchi tadbirlar o'tkazish bilan birga, ijodkor sifatida «Shajarai turk» , «Shajarai tarokima» va «Manofe' ul-inson» («Inson uchun foydali tadbirlar») kabi tarixiy-badiiy hamda tabiblikka oid nodir kitoblar yozdi. U o'zbek xonlari ichida Zahiriddin Muhammad Boburdan keyingi o'zbek xalqining madaniyat, ijtimoiy-siyosiy va huquqiy fikrlar tarixida sezilarli iz qoldirgan buyuk mutafakkirdir.

References:

1. Худойназаров Ҳ. «Шажараи турк» ва унинг ўрганилиши. Т.: «Ўқитувчи», 1993. – 346.
2. МИТТ, т. П.,М.-Л., 1938, С.336.
3. G'ulamov Ya.G'. Xorazmning sug'orilish tarixi. Toshkent, 1957. B.200
4. Худойназаров Ҳ. Абулғози Баҳодирхон тарихчи ва адиб. Т.: «Ўзбекистон», 1994. – 66
5. Худойназаров Ҳ. «Шажараи турк» ва унинг ўрганилиши. Т.: 1993. – 216.
6. G'afforov Sh.S. va b. O'zbekiston arxitektura yodgorliklari tarixi. Samarqand: 2011. – 173 b.
7. Худойназаров Ҳ. Абулғози Баҳодирхон тарихчи ва адиб. Т.: «Ўзбекистон», 1994. – 116.
8. Аҳмедов Б. Тарихдан сабоқлар. Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – 2176.